



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Кнарлик Карапетовна Арабян, Дилбар Хасановна Асланова, Мария Валерьевна Рубель Развитие предпринимательского мышления: опыт платформы системного развития «Бизнес созидание»	5
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев Креатив иқтисодиёт индустриясининг мазмуни ва унинг назарий масалалари	10
Дилдора Собиржонова Джураева Пути повышения уровня жизни населения в Республике Узбекистан: теоретико-методологический анализ и практические рекомендации	19
G'olib Sultonmurodovich Mustafoyev, Sabina Baxtiyor qizi Xudoyberdiyeva Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy omillar	24
Аскар Хайдарович Джумаев Хулқ-атвор иқтисодиётининг қисқача мазмун-моҳияти, аҳамияти ва истиқболлари	28
Анвар Нематович Холиқулов Сервис фаолияти маданияти тушунчасининг назарий талқини	31
ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ	
Комил Бахрамович Уразов, Мадина Шайманкуловна Хушмуродова Тенденции развития электронной торговли в Узбекистане	35
Dilafroz Marufovna Vofaxojayeva Tibbiyot turizmini rivojlantirishda raqamlashtirishning o'rnini	39
Наргиза Музафаровна Бабаева Инновацияларнинг Ўзбекистон иқтисодий ривожланишидаги роли	45
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Muxitdin Abduxamidovich Aynakulov Agroklasterni tashkiliy jihatdan optimallashtirish negizidagi kooperatsion aloqa usullari, yo'nalish va mexanizmlari	50
Umar Xudayberdiyev, Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva O'zbekistonda go'sht yetishtirishdagi muammolar va ularning yechimi	53
Boburmirzo Botirovich Abduvaxobov Sutni qayta ishlash korxonalarida ta'minot zanjiri tizimining tashkiliy mexanizmini takomillashtirish	56
G'ayrat Ablakulovich Ibragimov, Diyora O'tkir qizi Toshqulova, Shaxnoza G'ayrat qizi Ablakulova Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda suv resurslaridan foydalanishning o'rnini	60
Akhror Abdihakimovich Shermatov The importance of intellectual capital in manufacturing enterprises in the economy	64
Barno Asatullojevna Mardanova Sut mahsulotlari ta'minot zanjiri: muammolar, imkoniyatlar va yechimlar	69
Eldor Toshtemirovich Xamdorov, Shuhrat Saidahmadovich Sharifov O'zbekiston qishloq hududlarida maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish	74
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Munavvar Farxod qizi Axrorova Samarqand viloyatida tibbiy xizmatlarni davlat-xususiy sherikchiligi asosida takomillashtirishning istiqbollari	77
Sanjar Nasriddinovich Nazarov Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa-axbarotlashtirish xizmatlarini tashkiliy mexanizmini takomillashtirish	82

САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ

Muxitdin Abduxamidovich Aynakulov – JizPI professori, iqtisod fanlari nomzodi

AGROKLASTERLARNI TASHKILY JIHATDAN OPTIMALLASHTIRISH NEGIZIDAGI KOOPERATSION ALOQA USULLARI, YO‘NALISH VA МЕХАНИЗМЛАРИ

Annotatsiya. Ushbu maqolada tashkiliy optimallashtirish orqali agroklastarlarda kooperatsiya faoliyatini takomillashtirish strategiyalari ko‘rib chiqilib, umumiy samaradorlikni oshirish uchun agrosanoat majmuasining turli ishtirokchilarining integratsiyasiga e‘tibor qaratiladi. Tadqiqot multidisiplinar tahlilga tayanadi va taklif qilingan optimallashtirish modellarini baholash uchun turli usullarni birlashtiradi. Natijalar xarajatlarni pasaytirish va sifatni yaxshilash kabi ijobiy jihatlarni ta’kidlaydi, shuningdek, potentsial muammolarni, jumladan, investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyojni va xodimlarning ehtimoliy qarshiligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: agroklastarlar, tashkiliy optimallashtirish, kooperativ aloqa, xo‘jalik faoliyati samaradorligi, multidisiplinar yondashuv, xarajatlarni kamaytirish, sifatni boshqarish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda agrosanoat sohasi ko‘plab muammolarga duch kelmoqda, ular orasida hosildorlikni oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish birlamchi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar, qayta ishlovchi va boshqa hamkorlarni bitta yagona yaxlit tarmoqqa birlashtirish agroklastarlarning bosh g‘oyasidir.

Ammo, ko‘plab korxonalar va tashkilotlarning, shuningdek, infratuzilma obyektlarining bir doirada harakatlanishi, tabiiyki, haddan tashqari ko‘p sonli jamoani tashkil etishga olib kelmoqda. Shu boisdan, mazkur jarayonni ham boshqaruv jihatidan tartibga solinishi va amalga oshirilishi, hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalardan biri sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. А. Челинцев “О строительстве сельскохозяйственной кооперации”, shuningdek, И.В. Шароватова “Сельскохозяйственная кооперация в развитых и развивающихся странах” nomli manbalarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish subyektlari bilan boshqa xo‘jalik yuritish subyektlarining xo‘jalik yuritish kooperatsiyasi bo‘yicha ba’zi xorijiy manbalarda tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lsa, М.А. Айнакулов, Э.М. Абдухамидов “Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов”, Berkinov B. B., Aynakulov M. A. “Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi” nomli ilmiy maqola va monografik tadqiqotlarda kooperatsiyaning huquqiy asoslariga to‘xtalgan bo‘lsa, М.А. Айнакулов, Б. Б. Худойбердиев “Формы и методы развития агрокластера, их основные направления”, М. А. Айнакулов, В.В. Худайбердиев “Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida”, Qosimov J. A. et al. Development of methods for improving the lessons of information technology on the basis of graphic programs, shuningdek, М. А. Айнакулов, Б. Б. Худойбердиев “Хозяйственные кластеры и их основные направления” kabi tadqiqot manbalarida kooperatsiyaning shakl, usul va yo‘nalishlari, ularni tashkil etishning motivatsion jihatlari bayon qilingan, ammo aynan, tashkiliy optimallashtirish negizida kooperatsion aloqalarni rivojlantirishga hali yetarli darajada e‘tibor berilmagan. Shu boisdan ham, mazkur muammoni yoritish muallif tomonidan maqsad qilib olindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot iqtisodiyot, sotsiologiya, ekologiya va agronomiya elementlarini o‘z ichiga olgan multidisiplinar yondashuvga asoslangan bo‘lib, taklif etilayotgan optimallashtirish modellarining turli sharoitlarda imkoniyatlari va cheklovlarini har tomonlama baholash imkonini beradi. Tadqiqot jarayonlarida ba’zi yirik va kichik maqomdagi korxonalar uch yillik statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, amaliy tadqiqotlar, ekspert so‘rovlari va modellashtirishni o‘z ichiga olgan miqdoriy va sifat tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O‘z mohiyatiga ko‘ra, xo‘jalik faoliyatini optimallashtirish - bu ish yurituv samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, foydani ko‘paytirish va mahsulot yoki xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan korxonalar faoliyatining barcha jihatlarini takomillashtirish jarayonidir. Bu xo‘jalik faoliyati jarayonlarini qayta tarkiblash, sifat menejmenti tizimlarini joriy etish, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, logistika va ta‘minot zanjirlarini optimallashtirish, shuningdek, xodimlarni boshqarish va korporativ madaniyatni rivojlantirish kabi turli uslub va yondashuvlarni o‘z ichiga oladi.

Optimallashtirishning odatda, quyidagi turlari doimiy harakatdadir, xususan:

1. Tashkiliy optimallashtirish bo‘lib bunga menejment tuzilmasini qayta tashkil etish, aloqa va qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish kabilar kiradi;

2. Texnologik optimallashtirish bo‘lib, yangi texnologiyalarni joriy etish, uskunalarni modernizatsiya qilish va jarayonlarni avtomatlashtirish kabilar o‘z ichiga oladi [1];

3. Iqtisodiy optimallashtirishdan iborat bo‘lib, u xarajatlarni kamaytirishni, narxlarni optimallashtirishni va kapital boshqaruvini yaxshilash orqali moliyaviy samaradorlikni oshirishni qamrab oladi;

4. Xodimlarni optimallashtirish bo‘yicha bo‘lib, xodimlarni kamolotga yetaklash va o‘qitish, xodimlarni qayta tayyorlash, motivatsiya va samaradorlikni oshirishdan iborat [2];

Darhaqiqat, optimallashtirish xo‘jalik faoliyatining hozirgi holatini tahlil qilish, muammolar va samarasiz jarayonlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yoki yaxshilash bo‘yicha yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Ba‘zi yirik va kichik maqomdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning so‘nggi uch yillik moliyaviy va mehnat ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil asosida o‘rganib chiqish negizidagi tadqiqot natijalariga ko‘ra, xo‘jalik faoliyatini optimallashtirishning quyidagi afzalliklari va shuning bilan birgalikda kamchiliklari ham aniqlandi.

1. Xo‘jalik faoliyatini optimallashtirishning afzalliklari quyidagilardir.

- samaradorlik va hosildorlikni oshiradi va ortiqcha hamda samarasiz jarayonlarni bartaraf etishga yordam beradi, natijada resurslardan samaraliroq foydalaniladi, umumiy samaradorlik oshadi [3];

- optimallashtirishning asosiy jihatlaridan biri bu jarayonlarni takomillashtirish, materiallar, energiya, mehnat va boshqa xarajatlarni kamaytirish orqali erishiladigan to‘la tannarxni pasaytirishdir;

- xarajatlarning kamayishi va samaradorlikning oshishi odatda daromadning oshishiga olib keladi [4];

- optimallashtirish jarayoni ko‘pincha zamonaviy texnologiyalar va ish usullarini joriy etish orqali mahsulot yoki xizmatlar sifatini yaxshilashni o‘z ichiga oladi;

- optimallashtirish mahsulot tannarxini pasaytirish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish orqali korxonaga bozorda raqobatbardosh bo‘lishga imkon beradi.

2. Xo‘jalik faoliyatini optimallashtirishning kamchiliklari quyidagilardir.

- optimallashtirish jarayoni yangi asbob-uskunalar, texnologiya va xodimlarni o‘qitishga jiddiy investitsiyalarni talab qilishi mumkin, bu esa jiddiy xarajatlarga aylanadi [5];

- xo‘jalik xodimlari o‘zgarishlarga qarshilik ko‘rsatishi mumkin, bu esa qisqa muddatda ma‘naviyat va samaradorlikning pasayishiga olib kelish ehtimolini keltirib chiqaradi;

- optimallashtirish jarayonida kutilmagan oqibatlariga olib keladigan xatolarga yo‘l qo‘yilishi, ya‘ni, masalan, mahsulot yoki xizmatlar sifatining yomonlashishi mumkin;

- optimallashtirish ko‘pincha jarayonlarni ixchamlashtirishni talab qiladi, bu esa ish o‘rinlarining yo‘qolishiga va tashkilotda xodimlar qo‘nimsizligiga olib kelishi mumkin [6];

- jarayonlarni standartlashtirish va avtomatlashtirish moslashuvchanlikni pasayishiga olib kelishi mumkin va mijozlarga yoki vazifalarga alohida yondashish imkoniyatini cheklash, bu ba‘zi hollarda mijozning qoniqish darajasini pasaytirishi mumkin;

- optimallashtirish jarayonida texnologiyaga bo‘lgan ishonchni oshirish biznesning texnik nosozliklar, kiberhujumlar va boshqa AT infratuzilmasi muammolariga nisbatan zaifligini oshirishi mumkin [7];

-texnologiyalar va menejment usullari doimiy ravishda rivojlanib bormoqda, ular erishilgan optimallashtirish darajasini saqlab qolish uchun tizimni yangilash va xodimlarni o‘qitishga muntazam sarmoya kiritishni talab qiladi.

- samaradorlik va xarajatlarni kamaytirishga intilishda inson omili va korporativ madaniyatning ahamiyatini e‘tibordan chetda qoldirish mumkin, bu esa uzoq muddatda xodimlarning ma‘naviyati va sadoqatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi [8];

- bundan tashqari, samaradorlikni oshirishga harakat qilib, tizimni juda zaif qiladigan va tashqi o‘zgarishlarga yetarli darajada javob bera olmaydigan qarorlar qabul qilinganda, “qayta optimallashtirish” xavfi vujudga keladi;

- kichik korxonalar cheklangan resurslar tufayli optimallashtirishga moslashishda qiyinroq bo‘lishi mumkin, yirik kompaniyalar esa o‘zgarishlar ko‘lami tufayli o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun ko‘proq vaqt talab qilishi mumkin.

Korxonalar uchun optimallashtirishning eng katta kamchiligi, qachonki, tashkiliy tuzilmalarga o‘zgartirish kiritish asosidagi korporativ bo‘linishlar zarurati paydo bo‘lganda, ko‘p yillardan buyon yelkama-yelka, hamjihatlikda, bir-biriga mehr qo‘ygan mehnat jamoalarining rishtaviy uzilishi sodir bo‘ladi.

Ammo, olib borilayotgan tadqiqot natijalaridan shu jihat ayonki, yirik korxonani ikki yoki uchta kichik bo‘linmalarga ajratish tashkiliy tuzilmani optimallashtirishning samarali strategiyasi bo‘lib xizmat qiladi. Korporativ bo‘linish yoki spin-off sifatida tanilgan ushbu jarayon biznesni soddalashtirish, moslashuvchan va asosiy vakolatlariga yo‘naltirish imkonini beradi. Xo‘jalik faoliyatini yuritishni alohida-alohida qismlarga bo‘lish har bir yangi faoliyatni biznesning muayyan yo‘nalishlariga ixtisoslashtirish orqali resurslarni yanada samaraliroq taqsimlashga, tajovuzkor xavflarni kamaytirishga va umumiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Spin-off, odatda, yirik korxonada o‘zining bo‘linmalaridan yoki o‘zining faoliyat yo‘nalishlaridan birini alohida yuridik shaxsga aylantirganda sodir bo‘ladi.

Buning ham bitta yo‘li – xo‘jalik faoliyati tashkiliy jihatdan optimallashtirib, korxonada korporativ holatda yoki spin-off sifatida bo‘linish sodir bo‘lganda xo‘jaliklararo ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) kooperatsiyasini rivojlantirishdir.

O‘z mohiyatiga ko‘ra, optimallashtirilgan korxonalar o‘rtasida ishlab chiqarish kooperatsiyasi umumiy maqsadlariga erishish (tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish) uchun bir to‘plam doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy birlashuvini yoki o‘zaro hamkorlik qilishini o‘zida namoyon qiladi. Bunda optimallashtirilgan kichik korxonalarining turli xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan o‘zaro hamkorligi va ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish kooperatsiyasi quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin: 1.Subpudrat; 2. Dilerlar yordamida mahsulotni sotish (mutloq “franchayzing” shartnomalari tizimi).

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, xo‘jalik faoliyatini optimallashtirish ham muhim afzalliklarga, ham mumkin bo‘lgan kamchiliklarga ega. Xo‘jalik yuritishning o‘ziga xos xususiyatlarini va barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda optimallashtirish jarayonini diqqat bilan rejalashtirish, uning samarali jihatlarini imkon qadar oshirish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf va muammolarni imkon qadar kamaytirish muhimdir.

Korxonalarining xo‘jalik faoliyatini optimallashtirish o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga va korxonaning ichki omillariga muvofiq strategiyalarni moslashtirish uchun kompleks yondashuvni va olingan natijalarni doimiy tahlil qilishni talab qiladi. Zero, muvaffaqiyatli optimallashtirishning kaliti nafaqat innovatsiyalarni joriy etishda, balki doimiy takomillashtirish madaniyatini yaratish va tashkilotning barcha darajalarida samaradorlikka intilishdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Челинцев А. О строительстве сельскохозяйственной кооперации. Журнал «АПК: экономика, управление», № 5, 2009.

2. Шароватова И.В. Сельскохозяйственная кооперация в развитых и развивающихся странах. ВНИИТЭИ агропром, М., 2011.

3. Айнакулов М. А., Абдухамидов Э. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов // Молодой ученый. – 2016. – №. 7-2. – С. 80-83.
4. Berkinov B. B., Aynaqulov M. A. Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi // Monografiya-Jizzax. – 2004. – Т. 114. – С. 2004-114.
5. Айнакулов М. А., Худойбердиев Б. Б. Формы и методы развития агрокластера, их основные направления // Технологии социальной работы в различных сферах жизнедеятельности. – 2020. – С. 70-75.
6. Aynaqulov M. A. Xudayberdiyev B.B. Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida // Ilmiy axborotnoma jurnali. Samarqand Davlat Universiteti. – 2020. – №. 2 (120). – С. 91.
7. Qosimov J. A. et al. Development of methods for improving the lessons of information technology on the basis of graphic programs //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – Т. 2432. – №. 1.
8. Айнакулов М. А., Худойбердиев Б. Б. Хозяйственные кластеры и их основные направления // Общество. – 2020. – №. 1. – С. 32-36.

<p>М.Айнакулов</p> <p>Методы, направления и механизмы взаимодействия на основе организационной оптимизации сельскохозяйственных кластеров</p> <p>Аннотация. В данной статье изучаются стратегии улучшения кооперативной деятельности в агрокластерах через организационную оптимизацию, акцентируя внимание на интеграции различных участников агропромышленного комплекса для повышения общей эффективности. Исследование опирается на мультидисциплинарный анализ и комбинирует разнообразные методы для оценки предложенных моделей оптимизации. Результаты подчеркивают положительные аспекты, такие как снижение затрат и улучшение качества, однако также указывают на потенциальные сложности, включая необходимость в инвестициях и возможное сопротивление со стороны персонала.</p> <p>Ключевые слова: агрокластеры, организационная оптимизация, кооперативная коммуникация, эффективность хозяйственной деятельности, мультидисциплинарный подход, снижение издержек, управление качеством, производственная кооперация.</p>	<p>М.Аynakulov</p> <p>Methods, directions and mechanisms of cooperation based on organizational optimization of agricultural clusters</p> <p>Abstract. This article examines strategies for improving cooperative activities in agricultural clusters through organizational optimization, focusing on the integration of various participants in the agro-industrial complex to improve overall efficiency. The study relies on multidisciplinary analysis and combines a variety of methods to evaluate the proposed optimization models. The results highlight positive aspects, such as cost reduction and quality improvements, but also highlight potential challenges, including the need for investment and possible resistance from staff.</p> <p>Keywords: agroclusters, organizational optimization, cooperative communication, business efficiency, multidisciplinary approach, cost reduction, quality management, industrial cooperation.</p>
--	---

Umar Xudayberdiyev – SamISI dotsenti, i.f.n.

Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti assistenti

O‘ZBEKISTONDA GO‘SHT YETISHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda go’sht yetishtirish yildan-yilga ko‘payib borayotganligi, lekin aholi sonining va daromadlarining ko‘payib borayotganligi sababli, go’shtga talabning oshib borayotganligi natijasida narxning ko‘tarilishi bayon qilingan. Maqolada go’sht turlarini optimallashtirish, arzon va parhez bop turlarini ko‘paytirish lozimligi ta’kidlangan. Go’shtni yanada ko‘paytirish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat mahsulotlari, go’sht mahsulotlari, qoramollar, qo‘y va echkilar, yaylovlar ko‘p yillik o‘simliklar, chorvachilik, hududlar.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.